

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Xidirova Sevara Komiljon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Amaliy ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: sevarakomiljonovna07@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-0985-3514>

Annotatsiya. Ushbu maqolada paremiologik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Paremiologik birliklar sifatida maqol, matal va hikmatli iboralar ko'rib chiqilib, ularning til tizimidagi o'rni hamda nutq jarayonidagi vazifalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, paremiologik birliklar, maqol, matal, semantika, funksional xususiyatlar, lingvokulturologiya;

Annotation. This article analyzes the semantic and functional features of paremiological units from a linguistic perspective. Proverbs, sayings, and wise expressions are examined as paremiological units, and their role in the language system as well as their functions in the speech process are described.

Keywords: paremiology, paremiological units, proverb, saying, semantics, functional features, linguoculturology.

Аннотация. В данной статье семантические и функциональные особенности паремнологических единиц анализируются с лингвистической точки зрения. В качестве паремнологических единиц рассматриваются пословицы, поговорки и мудрые изречения, а также освещается их роль в системе языка и функции в процессе речи.

Ключевые слова: паремнология, паремнологические единицы, пословица, поговорка, семантика, функциональные особенности, лингвокультурология.

Paremiologiya tilshunoslikning maqol va matallarni o'rganadigan muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Paremiologik birliklar xalq og'zaki ijodining qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, ular xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi va ijtimoiy qarashlarini o'zida mujassam etadi. Maqol va matallar qisqa, lo'nda hamda obrazli shaklda ifodalanib, til boyligini namoyon qiluvchi muhim birliklar sifatida til tizimida alohida o'rin egallaydi.

Tilshunoslikda paremiologik birliklar nafaqat folklor namunasi sifatida, balki semantik va funksional jihatdan murakkab til birliklari sifatida ham o'rganiladi. Ularning semantik xususiyatlari ko'chma ma'no, umumlashgan mazmun va baholovchi ma'no orqali namoyon bo'lsa, funksional jihatdan ular nutqda tarbiyaviy, kommunikativ, estetik hamda madaniy vazifalarni bajaradi. Shu sababli paremiologik birliklar tilshunoslik, folklorshunoslik va sotsiolingvistika kabi fanlar kesishgan nuqtada tadqiq etiladi.

Paremiologik birliklar o'zbek tilining barqaror leksik qatlamiga kirib, xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlarini hamda dunyoqarashini ifodalovchi muhim nutq birliklari hisoblanadi. Tadqiqotchilar H. Berdiyev va R. Rasulov ularni xalq

tafakkurining qisqa, obrazli va mazmunan chuqur ifodasi sifatida shakllangan tarixiy til birliklari deb izohlaydilar³⁵.

Paremiologik birliklarning muhim semantik xususiyatlaridan biri- metaforik yoki ko'chma ma'nodir. Bunda maqol yoki matalning tashqi mazmuni boshqa bir umumiy hayotiy fikrni ifodalash uchun ishlatiladi.

a) Denotativ ma'no

Bu guruhga kiruvchi paremiologik birliklar voqelikni to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi, ya'ni ular hayotiy haqiqatni bevosita aks ettiradi. Bunday maqollar real hayotiy tajribani ifodalab, muayyan axloqiy tamoyil yoki qadriyatni ochiq tarzda bildiradi.

“Actions speak louder than words.”

Amallar so'zlardan ko'ra kuchliroq gapiradi.

O'zbekcha muqobili: Ish gapdan ustun.

“He who works hard will succeed.”

Mehnat qilgan inson muvaffaqiyatga erishadi.

O'zbekcha muqobili: Mehnat qilgan – rohat ko'rar.

“Where there is a will, there is a way.”

Iroda bo'lsa, yo'l topiladi.

O'zbekcha muqobili: Harakatda baraka.

b) Konnotativ ma'no

Bu turdagi paremiologik birliklar faqat denotativ ma'noni emas, balki qo'shimcha emotsional yoki baholovchi ohangni ham o'z ichiga oladi. Ular orqali so'zlovchining munosabati, hissiyati yoki qadriyatlarga bo'lgan qarashi ifodalanadi.

“Too many cooks spoil the broth.”

Juda ko'p oshpaz sho'rvani buzadi.

O'zbekcha muqobili: Ko'p bosh bo'lsa – ish chatoq bo'ladi.

“A friend in need is a friend indeed.”

Qiyinchilikda yordam bergan – haqiqiy do'st.

O'zbekcha muqobili: Do'st boshga kulfat tushganda bilinadi.

Bu maqollar faqat ma'lumot bermaydi, balki so'zlovchining bahosi, hissiy munosabati yoki ijtimoiy qarashini ham ifodalaydi. Shu sababli ular konnotativ semantikaga ega paremiologik birliklar hisoblanadi.

“Yeti o'lchab, bir kes.” Ishni qilishdan oldin yaxshilab o'ylash kerakligi izohlab berilgan. Ingliz tilida **“Look before you leap.”** maqoliga to'g'ri keladi. Bu misollar mazmun jihatdan o'xshash bo'lib, har ikkalasi ham ehtiyotkorlik va oldindan fikrlash g'oyasini metaforik tarzda ifodalaydi.

Paremiologik birliklar ko'pincha ma'lum bir vaziyatni emas, balki umumiy hayotiy qonuniyatni ifodalaydi. Shu sababli ular ko'plab vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin. **“Mehnat qilgan – to'yadi.”- “No pain, no gain.”**

Paremiologik birliklar til tizimida nafaqat ma'no ifodalovchi birliklar, balki nutq jarayonida turli kommunikativ va ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi muhim til vositalari hisoblanadi. Ularning funksional xususiyatlari xalqning madaniy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari va hayotiy tajribasini ifodalash orqali namoyon bo'ladi.

Paremiologik birliklarning eng muhim vazifalaridan biri yosh avlodni tarbiyalash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdir. Maqollar orqali insonlarga mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi.

³⁵ Berdiyev H., Rasulov R. Paremiologik birliklar lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014.

“Ilm – boylikdan afzal.” “Honesty is the best policy.” Ushbu maqollarni misol keltirishimiz mumkin.

Paremiologik birliklar nutqda fikrni qisqa, lo‘nda va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Ular murakkab fikrni qisqa shaklda yetkazishga yordam beradi.]Hamda nutqni obrazli va badiiy qiladi. Ularning tarkibida ko‘pincha metafora va badiiy tasvir vositalari mavjud. **“Kind words cost nothing.”** Bu maqollar nutqqa estetik ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, paremiologik birliklar nafaqat til boyligini namoyon etuvchi lingvistik hodisa, balki xalq tafakkuri va milliy mentalitetining ifodasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va ingliz maqollarini qiyosiy tahlil qilish esa turli xalqlarning madaniy qadriyatlari, hayotiy qarashlari va ijtimoiy tajribasi ko‘plab jihatlarida o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ayrim farqlar har bir xalqning o‘ziga xos madaniy muhitiga bog‘liq holda shakllanganini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdiyrov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologiyasi. – Toshkent: Fan, 1984.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004.
4. Permyakov G.L. Основы структурной паремиологии. – Москва: Наука, 1988.
5. Norrick N. How Proverbs Mean: Semantic Studies in English Proverbs. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1985.
6. Honeck R. A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. – Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 1997.